

AMIR TEMURNING YETTI YILLIK YURISHLARINING TARIXIY AHAMIYATI

Mohira Lutfullayeva

Al-Buxoriy nomidagi Oriental universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola dunyo tarixida o'chmas iz bo'lib qolgan, Sohibqiron Amir Temurning Ozarbijondan boshlab qilgan yurishlari, Yaqin Sharq hududlarigacha bo'lgan yerlarni egallanishi, sardorlar, kurdlar kabi davlatlarning tugatilishi va turk sultoni Boyazid Yildirim I bilan to'qnashishi sabablari haqida to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Ozarbijon, Misr, Kanstantinopol, Eron, Iroq, Hindiston, Makka, Madina, Samarqand, imperiya, turk sultonligi, xristian, qo'shin, elchi, maktub, ziddiyat, karvon, soliq.

Annotation: This article is about the reasons for the indelible mark in the history of the world, Sahibqiran Amir Temur's campaigns starting from Azerbaijan, occupying lands up to the Middle East regions, ending states such as warlords, Kurds, and clashing with the Turkish sultan Bayazid Yildirim I stopped.

Keywords: Azerbaijan, Egypt, Constantinople, Iran, Iraq, India, Mecca, Medina, Samarkand, empire, Turkish Sultanate, Christian, army, ambassador, letter, conflict, caravan, tax.

Аннотация: В данной статье речь идет о причинах неизгладимого следа в мировой истории, походах Сахибкيرانа Амира Темура, начиная с Азербайджана, захватывая земли вплоть до регионов Ближнего Востока, заканчивая такими государствами, как полевые командиры, курды и столкнувшись с турецким султаном. Баязид Йылдирим остановился.

Ключевые слова: Азербайджан, Египет, Константинополь, Иран, Ирак, Индия, Мекка, Медина, Самарканд, империя, Турецкий султанат, христианин, армия, посол, письмо, конфликт, караван, налог.

Bugungi kunda yurtimizda tarixini o'rganish yangicha yondashuvlar bilan o'rganilmoqda. Xususan, yurtimiz tarixida muhim iz qoldirgan buyuk ajdodlarimiz borasida ko'plab izlanishlar olib borilmoqda. Shunday buyuk ajdodlarimizning yorqin vakili bu Sohibqiron Amir Temur shaxsi hisoblanadi. U haqida ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan bo'lsada, buyuk ajdodimizni shaxsiyati to'laligicha yoritilmagan, shu sababdan uning shaxsiyati qaysidir ma'noda o'z mavhumligini saqlab kelmoqda. Shu bilan birga bugungi tarixshunosligida Amir Temur harbiy yurishlari alohida ahamiyat kasb etadi.

Amir Temur nafaqat buyuk habiy sarkarda, ayni zamonda mohir va usta davlat arboblari xos diplomatik buyuk hukmdor. Hatto, ichki intizom masalalariga ham nihoyatda katta e'tibor qaratar edi. Amir Temur olim-u ulamolarning, hamda pirlarning maslahatlariga tayangan. Bunga "Temur Tuzuklar" dan misol qilib, Sohibqiron Piri Abu Bakr Zayniddin Toyobodiy shunday ta'lim beradi: "Agar har narsani va har kimni o'z martabasida saqlay olmasang, saltanatingga bundan ko'p ziyon-zahmat yetgay. Demak, har kimning qadr-qiyamatini, tutgan mavqeyini, har narsaning o'lchovini belgilab olishing va shunga muvofiq ish yuritishing kerak. O'n ikki toifa bilan davlatingga ziynat berib o'sha bilan saltanat qurgin"¹ keltirish mumkin.

¹ Shamsuddin Somiy. Temur tuzuklari.- Toshkent: G'ofur G'ulom nashriyoti, 1996, 81-bet.

Amir Temurning harbiy yurishlari o'ziga xosdir. Amir Temur Eronga qarshi 1386-yildan boshlab, 1388-yilgacha "uch yillik" nom bilan, 1392-yildan boshlab, to 1396-yilgacha "besh yillik" va so'ngi yurishi 1399-yildan boshlab, to 1404-yilga qadar "yetti yillik"² deb ataluvchi urushlar olib boradi. Yurishlari davomida, Ozarbayjonda jaloyirlar, Sabzavorda sarbadorlar, Hirotda kurdlar davlatini tugatgan, Xuroson, Suriya, Misr va Eronning Qobushon, Tuyo, Nishopur, kabi shaharlari Temurga jangsiz taslim bo'ladi. Chunki, shahar hokimlari o'z shaharlarining xarobazorga aylanishini istamaydilar. 1398-yilning may oyida Amir Temur Hindistonga qilgan yurishi 92 ming kishilik, ba'zi manbalarda esa 90 ming qo'shin bilan deyilgan. Bu manbalarning soni har bir manbada turlicha kelgan.

Bu urushni Muhammad (S. A. V) Payg'ambar e'tiqodini yoyish, Payg'ambar nomini ko'klarga ko'tarish, butparast, kofirlarni islom diniga kirtish, bu yerdagi feodal tarqoqlik va o'zaro urushlarga barham berish bayrog'i ostida olib boradi. Sohibqironning o'zi bu haqda "Temur Tuzuklar"da shunday deb yozgan edi: "Qur'oni majiddan fol ochsam "Ey Payg'ambar, kofirlarga va munofiq'larga qarshi jahd qilgil.... So'ngra... iqbolimiz xonasi, Hindistonga qarata qo'l ko'tarib, zafar-u fath fotihasini o'qidim"³.

Yana shuni aytish kerakki, 1398-yil may oyidan boshlab, boy va badavlat Dehli shahri qariyb o'n bir oylik istilodan so'ng, Sohibqiron Amir Temurga jangsiz taslim bo'ladi. U Hindistondan juda ko'p qullar, boyliklarni, shu jumladan 120 ta jangovor, baquvvat va ulkan fillarni qo'lga kiritadi va ularni 1399-yil mart oyida o'z poytaxti Samarqandga olib keladi. So'ng, ularni Samarqand va Kesh shaharlarida olib borilayotgan qurilish ishlariga sarflaydi. Bular orasida ko'zni qamashtiruvchi juda katta, olov kabi yonib turuvchi qip-qizil javohir "Chirog'i olam" alohida qiymatga ega edi. Yoqutning yuziga buyuk Sohibqiron Amir Temurning nomi o'yib yoziladi va Samarqanddagi yigirma besh ming noyob javohirlar qatoridan joy oladi.

Sohibqiron Amir Temur Samarqandga qaytib kelgach, g'arb tomon bo'ladigan yurishga puxta tayyorgarlik ko'ra boshlaydi. Amir Temurning 1389-1403-yillarda olib borgan harbiy yurishlari natijasida, Shomning Halab ya'ni, Aleppo, Xums, Ba'albak, Damashq va shular kabi yirik shaharlarni zabt etadi. Yozma manbalarda aytilishicha, Amir Temur uzoq safarga o'tlanishidan oldin, o'z askarlariga yetti yillik maoshni tarqatganligi manbalarda qayt etiladi.

Bu yillardagi urush asosan, jahonning buyuk sarkardalaridan biri bo'lgan, turk sultoni Boyazid Yildirim I ga qarshi qaratilgan bo'lib, turk hokimi o'rtasidagi bo'layotgan ziddiyat va qarama-qarshilik borgan sayin kuchayib borardi. Bu urush bir vaqtning o'zida ikki buyuk hukmdorning dunyoga hukmronligi ostida kechdi desa ham bo'ladi.

Sohibqiron Amir Temur 1389-1403-yillardagi turk sultoni Boyazid Yildirim I bilan hal qiluvchi jangga shoshilmaydi va hattoki, iloji boricha, bu urushning oldini olishga va uni tinch siyosiy vositalar bilan hal qilishga urinadi.

Chunki, o'zini islom himoyachisi hisoblagan buyuk Sohibqiron Amir Temur, turk sultoni Boyazid Yildirimning xristianlarga qarshi jang qilyotganini yaxshi bilar edi. Ammo, Amir Temurning bu intilishlarini o'ziga haddan tashqari bino qo'ygan va o'z qudratini yuqori baholagan turk sultoni Sulon Boyazid nazar pisand qilmaydi. Sohibqiron Amir Temurni

² Rustambek Shamsuddinov, Shodi Karimov. Vatan tarixi. -Toshkent: Sharq nashriyot- matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2010, 365-366-bet.

³ Shamsuddin Somiy. Temur tuzuklari.- Toshkent: G'ofur G'ulom nashriyoti, 1996, 47-bet.

kamsitib, haqoratlaydi va ikki o'rtada boshlangan urushga asosiy sabab bo'ladi. Boyazidning qilgan bu ishi madaniyatga, axloq-odobga to'g'ri kelmaydi. Amir Temurga kelsak, u juda tartib, intizomli inson bo'lib, bunday haqoratlar unga yarashmaydi. Buni tarixiy voqealar ochiq-oydin isbotlaydi.

Qora quyunli turkman qabilasining hokimi Qora Yusuf 1388-1399-yillarda Armaniston, Iroq va O'zarbajon sarhadlarida bir necha marta Sohibqiron Amir Temur lashkarlariga qarshi janglar olib borgan. Unga Ahmad Jaloyir ittifoqdosh bo'lib, Qora Yusuf bilan Ahmad Jaloyirlarni turk sultoni Boyazid Yildirim o'z himoyasiga oladi va ularga yashash uchun boshpana beradi. Sohibqiron Amir Temur turk sultoni Boyazid Yildirimga o'z elchisi orqali maktub yozib, Qora Yusufni unga topshirishini talab qiladi. Maktubda yozilishicha: "Yer-u ko'kni yaratgan Tangri taolaga cheksiz shukrlar bo'lsinki, yetti iqlim mamlakatlarining ko'pini mening farmonimga kirgizdi va olam sultonlari va hokimlari menga egilib, itoat qilish halqasini jon quloqlariga taqdilar. O'z qadrini bilib, haddidan oshmay, jasorat oyoqlarini tiygan bandasini Tangri yorlaqasin. Sening nasli-nasabing kim ekanligi jahon xalqi oldida hammaga ma'lumdir. Shunday ekan, holingga munosib ish tutib, jur'at oyog'ini oldinga qo'ymaki, rangi mehnat balchig'iga botib, balo chuquriga yiqilgaysan. Iqbol eshigidan haydalgan, bir to'da ig'vogar kishilar, g'arazli ishlarini bajarish uchun sening panohingdan joy olib, uxlab yotgan fitnani uyg'otmishlar. Yana, o'shalarning ig'vosi bilan, ofat va balo eshigini davlatning yuziga ochmagil. Mazkur maktub yetishi bilan, Qora Yusufni mening oldimga yuborgil. Yo'qsa, taqdir pardasi ikki lashkar saflari to'qnashganda yuzingga ochilg'usidir."⁴ deb yozilgan. Ibn Arabshohning ma'lumotlariga qaraganda, Amir Temur nomasini olgach va uning mazmunini fahmlagach Boyazid Yildirim o'rnidan sapchib turib ketgan va Sohibqiron Amir Temurni har xil bo'lmag'ur so'zlar ya'ni, haromi, qon to'kuvchi, zinogar, buzuqi, qing'ir kabi so'zlar bilan haqoratlab, unga yozgan maktubining so'ngida quyidagilarni yozgan: "...Men bilamanki, bu so'zlar seni hech to'xtatmasdan bizning mamlakatimiz tomon otlantiradi. Agar sen, biz tomonga kelmasang, sening xotinlaring, juftlaring uch taloq bo'lsin. Agar sen, meni yurtimga kelsangu, men senga qarshi qat'iy urush, jang qilmay qochsam, u vaqtda mening xotinlarim uzil-kesil uch taloq bo'lsin"⁵. - deb javob qaytaradi Sulton Boyazid Yildirim I.

Sohibqiron Amir Temur turk sultoni Boyazid Yildirimdan bunday haqoratli maktubni olgandan so'ng, ikki o'rtada qonli urushlar bo'lishi muqarrar bo'la boshladi.

Ibn Arabshoh yana davom etadi: "Qachonki, Amir Temur turk sultoni Boyazidning iztirobli javobidan voqif bo'lgach, "Ibn Usmon majnun va ahmoq"- dedi⁶. Chunki, u aziyatli holda haqorat qilgan edi. Amir Temur uning javobidan, xotinlari zikr qilgan joyini o'qib, xotima qildi. Chunki, xotinlarga til tekkizish ularda katta ayb bo'lib, g'oyat gunoh hisoblanadi. Hatto, ular xotin va qizlarning ismini talaffuz qilmay, ularning har birini boshqa bir ibora bilan ataydilar, hamda bu narsadan saqlanishlar, deb insonlarga doimo uqtirardilar. Agarda, ulardan birontasining ayoli qiz farzand dunyoga keltirsa, u ayolni "pardalik bola", "ziynat sohibi" yoki "mastura" shular kabi o'xshash iboralar bilan ataydilar.

⁴ Shamsuddin Somiy. Temur tuzuklari.- Toshkent: G'ofur G'ulom nashriyoti, 1996, 51-bet.

⁵ Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi I- kitob.- Toshkent: Mehnat, 1992, 258-259-bet.

⁶ Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi I- kitob.- Toshkent: Mehnat, 1992, 258-259-bet.

Sohibqiron Amir Temurning G'arbga tomon yurishi 1399-yildan boshlanib, to 1404-yillargacha davom etgan. Bu tarixga "Yetti yillik urush" nomi bilan kirgan. U yo'l-yo'lakay gurjiylar isyonini bostirib, qish mavsumini Qorabog'da o'tkazadi va 1400-yil avgust oyida Amir Temur turk sultoni Boyazidni qo'rqitib qo'yish yoki unga urush e'lon qilishga majbur etish maqsadida, turk sultoni o'ziniki hisoblagan, Kichik Osiyoning hosildor yerlarida joylashgan, ikki muhim qal'a Sivos va Milatiyani bosib oladi. Bu qal'alar keyinchalik Amir Temurning Kichik Osiyodagi bo'lajak harakatlari uchun tayanch bo'lib xizmat qiladi. Sohibqiron Amir Temur endi o'z nigohini Shom ya'ni, Suriya yurtiga qaratadi. Chunki, bu mamlakat turk sultoni Boyazid Yildirim bilan yaqin aloqada bo'lgan, Misr sultoni Farajga qarar edi. Mabodo, Amir Temur turk sultoni Boyazidga qarshi urush, boshlagan taqdirda ham, Misr sultoni Faraj unga yordamga kelishi mumkin edi. Shu boisdan ham, Sohibqiron Amir Temur Misr sultonini tor-mor keltirib, u yurtini tashlab qochishga majbur qilib Damashqni shahrini egallab oldi. So'ng, Mo'sul tomon yo'l oladi. Bog'dod urushsiz Amir Temur hokimiyatini tan olgan bo'lsada, shahar aholisining turli xil g'alayonlarini bahona qilib, Amir Temur 1401-yilda u yerga bostirib kiradi va ikki oylik qamaldan so'ng, shahar istehkomlari va qo'rg'onlarni egallaydi.

Chunki, Amir Temur turk sultoni Boyazid Yildirim bilan urush bo'lgan taqdirda, turk sultonining qo'li baland kelsa, Bog'dod uning ittifoqchisiga aylanishi mumkinligini yaxshi bilar edi.

Sohibqiron Amir Temur 1402-yilda u yerdan o'tib, gurjilarning isyonini yana bir marotaba bostiradi. Sohibqironning bu harakatlari sulton Boyazidning asablarini batamom ishdan chiqaradi. Amir Temur turk sultoni Boyazid Yildirim bilan yozishmalar qilib, uning atrofidagi yerlarni o'ziga qaratish uchun, urushlar olib borib, u bilan bo'ladigan bevosita jangni paysalga solishi, cho'zishdan aniq maqsad va muddaolarni ko'zlagan edi.

Birinchidan, Amir Temur turk sultoni Boyazid Yildirimni yakkalab qo'yadi va ittifoqchilardan mahrum etadi. Ikkinchidan, u shu davr mobaynida dushmanning xususiyatlarini, kuchli va kuchsiz tomonlarini, urush sodir etadigan hududlarining sharoitlarini o'ganib chiqadi. O'zining orqa tayanchini mustahkamlaydi, lashkarlarni kerakli oziq-ovqatlar va zaxiralar bilan ta'millaydi. Zarur bo'lib qolgan taqdirda, chekinish uchun qulay yo'l-yo'riqlarni hozirlaydi.

Rivoyat qilishlaricha, o'sha davr Sharqning eng bilimdon, zukko munajjimlaridan biri bo'lgan, Abdulloh Lisson yulduzlarga qarab, g'alaba Amir Temur tomonida bo'lishligini bashorat qiladi. Bu hol Sohibqiron askarlarining ruhini ko'tarilishiga sabab bo'ldi. Usmonli turklar saltanatining sultoni Boyazid Yildirim esa, o'zining g'arbda erishgan muvaffaqiyatlariga haddan tashqari baho berib, maishat va kayfu-safoga mukkasidan ketgan edi. Bu barcha musulmonlarning undan nafratlanishi va undan yuz o'girishiga sabab bo'ladi.

Buning ustiga, Boyazid Yildirim ikki muqaddas shahar Makka va Madinaga ziyorat uchun borayotgan karvonlarni talash bilangina cheklanib qolmasdan, hatto Amir Temurga qarshi isyonlarga ham boshchilik qilgan oqquyunlar va qoraquyunlar qabilalarining boshliqlarini o'z himoyasiga olgan edi. Ularni topshirish to'g'risidagi Temur nomlarini Boyazid hatto, eshitishni ham istamadi. Chunki, u o'zini yengilmas ulug' sulton deb hisoblaydi. Albatta, Boyazid Yildirim ham o'z davri uchun, jangovar va kuchli lashkar tuzgan bo'lib, bu qo'shin bilan, u Bosfor bo'g'ozini orqali o'tib, butun Bolqon yarim orolini egallashga otlanadi va u dastlab, Bulg'oriya yerlarini bosib oladi.

Turk sultoni Boyazid Yildirimning tahdididan vahimaga tushgan Yevropa qirollari, Burgundiya gersogi marshal Busiko⁷ qo'mondonligida, birlashgan qo'shin tuzadilar va turk sultoni Boyazidga qarshi salb yurishiga hozirlanadilar. Ikki o'rtadagi jang 1396-yilda Nikopol ya'ni Bulg'oriyada bo'lib o'tadi. Bu jangda yuz ming kishilik qo'shinga qo'mondonlik qilgan Sigizmund yengiladi, o'zi va lashkarboshlari asirga tushadi. Tutqunlikdan qutilgan Busiko o'z vatani Fransiya bormasdan, Vizantiya imperatori Manuil III Paleolog xizmatiga kiradi va Genuya shahri gubernatori mansabini egallaydi. U Manuil III rahnamoligida bir ming ikki yuzta saralangan ritsarlardan iborat qo'shin to'plab, 1399-yilda yana Sulton Boyazid bilan jang qiladi. Ammo, Marshal bu safar ham Konstantinopol shahri yaqinidagi jangda mag'lubiyatga uchragan. Shundan so'ng, chorasiz qolgan Manuil III va Marshal Busiko o'z himoyalari bo'lmish G'arb mamlakatlariga yordam so'rab murojaat qiladilar. Lekin, Fransiya qiroli Karl VI ham, Angliya qiroli Genrix IV ham, Kastiliya qiroli Genrix III ham, hatto, Rim Papasi ham, ularga yordamni paysalga solib kechiktirgan. Boyazid Yildirim I bilan Sohibqiron Amir Temur o'rtasidagi voqealar rivojlanishini ustalik bilan kuzatar edilar. Albatta, Yevropa hukmdorlari ikki jahonning o'zaro to'qnashuvini istar edilar. Chunki, har ikki qudratli hukmdor o'zaro urushib, bir-birlarini holdan toydirlasalar, Yevropa uchun juda katta foyda keltirishini ular yaxshi bilganlar. Amir Temur turk sultoni Boyazid Yildirim I G'arbgga qarshi birlashib harakat qilish uchun umumiy til topa olmaydilar. Ular o'zaro urushda bir-birlarini holdan toyirib, umumturkiy xalqlarining qudratini zaiflashtirajaklarini anglab yetmaydilar. Yevropa hukmdorlari mohirlik bilan, ikki turk hukmdorlarini bir-biriga qayragan. Vizantiya imperatori Manuil III va Fransiya qiroli Karl VI o'z elchilarini va Rim Papasi o'z manarxlarini shoshilinch tarzda Sohibqiron Amir Temur huzuriga yuborib, unga o'zlarining xayrihohliklarini izhor qiladilar. Genuya va Venetsiyadan kelgan elchilar o'z hukmdorlarining Bo'sfor bo'g'oziga kemalar chiqazib, Sulton Boyazidning dengizidagi yo'lini to'sishga shay turganligini bildirishgan.

Anqara yaqinidagi Chubuq mavzeyida 1402-yilning 20-iyul kuni Sohibqiron Amir Temur va Sulton Yildirim Boyazid o'rtasida jang bo'lib o'tadi. Bu jang tarixga "Anqara jangi"⁸ nomi bilan kirdi.

Ba'zi mualliflar, Boyazid Yildirim I ustidan, Sohibqiron Amir Temur g'alabasining ahamiyatini kamsitish maqsadida, Amir Temurning jami lashkarlari sonini sakkiz yuz ming, urushda qatnashganlari soni esa uch yuz yoki uch yuz ellik ming bo'lganligini ta'kidlasada, lekin bu ma'lumotlar Amir Temur g'alabasi ahamiyatini zarracha ham kamaytirmaydi. Tarixchi olim M. Ivanin Sulton Boyazidning lashkarlar soni ikki yuz yoki ikki yuz ellik yoki bir yuz yigirma ming atrofida ko'rsatgan. Ibn Arabshohning ma'lumotlarida Amir Temur qo'shinlarini soni bir million bo'lgan, deb bo'rtiradi.

Amir Temur ikki yuz ming kishilik qo'shinining o'ng qanotiga o'g'li Mironshoh, chap tomoniga nabiralari Sulton Husayn va Halil Sultonlar va kenja o'g'li Shohruh qo'mondonlik qiladi. Qo'shin markazini, Temurning sevimli nabirasi Muhammad Sulton boshqaradi. Markaz va qanotlar ortida Amir Temurning o'zi va ikki nabirasi Pirmuhammad va Aleksandrlar zaxiradagi kuchlar hal qiluvchi zarbaga tayyor edilar. Boyazid qo'shiniga qaynisi, Serb knyazi

⁷ Rustambek Shamsuddinov, Shodi Karimov. Vatan tarixi I-kitob.- Toshkent: Sharq nashriyot- matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2010, 370-bet.

⁸ R. H. Murtazayev. O'zbekiston tarixi. -Toshkent, 2005, 223-bet.

Lazarevich va o'g'illari boshchilik qilib, jang olib borishadi. "Anqara jangi" oxir-oqibat buyuk hukmdor Sohibqiron Amir Temurning yorqin g'alabasi bilan yakunlangan.⁹

Xulosa qilib shuni ta'kidlash lozimki, Usmonli turklar bilan ziddiyat masalasida esa turli xil qarashlar mavjud bo'lib, ba'zi tarixiy manbalarning guvohlik berishicha Amir Temur bir necha elchi va voliyalarini qatl qildirgan Qoraqo'yunlilar yo'l boshchisini sulton Yildirim Boyazid o'zining soyasi ostiga olgani yohud misr va turk sultonlari Amir Temurga qarshi o'zaro harbiy ittifoq tuzganini keltirish mumkin. Shuningdek, ba'zi ma'lumotlarda buyuk hukumdorlarning to'qnashuvida Yevropa diplomatiyasini yutug'i degan ma'lumotlarni ilgari surishadi. Yuqoridagi omillar sabab Amir Temurning Usmonli sultonigiga yurishi amalga oshirilgan va bu yurish Amir Temurning mavqeyini ancha mustahkamlaganligini ta'kidlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi I-kitob. Toshkent. Fan. 2019, B-511.
2. Shohistaxon O'ljayeva. Amir Temur va Temuriylar davrida milliy davlatchilikning rivojlanishi. Toshkent. Fan. 2005, B-267.
3. Rustambek Shamsutdinov, Shodi Karimov. Vatan tarixi I- kitob. Toshkent. Sharq. 2010, B-511.
4. R. H. Murtazayeva. O'zbekiston tarixi. Toshkent. Yangi asr avlodi. 2003, B-674.
5. B. J. Eshov, A. A. Odilov. O'zbekiston tarixi II- kitob. Toshkent. Donishmand Ziyosi. 2020, B-406.
6. Sharofiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. Toshkent. Sharq. 1997, B-381.
7. R. H. Murtazayev. O'zbekiston tarixi. Toshkent. 2005, B-534.
8. Shamsuddin Somiy. Temur tuzuklari. Toshkent. G'afur G'ulom. 1996, B-130.

⁹ Rustambek Shamsuddinov, Shodi Karimov. Vatan tarixi I-kitob.- Toshkent: Sharq nashriyot- matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2010, 372-bet.